

LEKSIK SATH BIRLIKLARI TAVSIFI

Begimova Gulshoda Jahon qizi

QarMII Xorijiy tillar kafedrası assestenti

beginmovagulshoda84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi leksik sath birliklarining tavsifi keltirilgan bo'lib, ularning sintaktik, semantik va pragmatik masalalariga ham ahamiyat berilgan. Mazkur masala talqini, o'z navbatida, til birliklarining nutqda qo'llanilishi bilan aloqador bo'lgan, umuman olganda, nutq lingvistikasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim masalalarga oydinlik kiritishda ham muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Kalit so'zlar: leksik sath birliklari, morfemik sath birliklari, fonetik sath birliklari, baho munosabati, til ontologiyasi, signifikat, denotat, konstituentiv munosabat.

ОПИСАНИЕ ЕДИНИЦ ЛЕКСИЧЕСКОГО УРОВНЯ

Бегимовой Гулшода Жахон кизи

Ассистент кафедры иностранных языков КарМИИ

beginmovagulshoda84@gmail.com

Аннотация: В данной статье описаны единицы лексического уровня английского языка, а также их синтаксические, семантические и прагматические вопросы. Не подлежит сомнению, что интерпретация этого вопроса, в свою очередь, будет важна для выяснения некоторых вопросов, связанных с употреблением языковых единиц в речи, и касающихся лингвистики речи в целом.

Ключевые слова: единицы лексического уровня, единицы морфемного уровня, единицы фонетического уровня, ценностное отношение, онтология языка, значение, денотат, конститутивное отношение.

DESCRIPTION OF LEXICAL LEVEL UNITS

Begimova Gulshada Jahon kizi

Assistant of the Department of Foreign Languages of QarMII

begimovagulshoda84@gmail.com

Abstract: This article describes the lexical level units in the English language, and their syntactic, semantic and pragmatic issues are also important. There is no doubt that the interpretation of this issue, in turn, will be important in clarifying some issues related to the use of language units in speech, and related to speech linguistics in general.

Key words: lexical level units, morphemic level units, phonetic level units, value relation, language ontology, signification, denotation, constitutive relation.

KIRISH

Til har bir millatning mavjudligi va har bir xalqning ma'naviy-madaniy yuksalishini harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Tilimizning tarixi, buguni va ertasi haqida qayg'urish tilshunoslik fanining oldinda turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Tilning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bir necha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o'zining uzoq tarixiga ega. Xususan, til tuzilishining an'anaviy tilshunoslikda uch qismga, leksik, fonetik va grammatik qismlarga bo'linishi va bu qismlarni o'rganadigan tilshunoslikning uchta bo'limga ajratilishi tilni ana shunday qatlamlar butunligi sifatida tushunishning yorqin namunasidir. Lekin sistemaviy-struktur tilshunoslik shakllangunga qadar tilning bunday ichki tuzilishini qatlam sifatida tushunish amaliy kuzatishning ilk natijalari bo'lib, til stratifikatsiyasi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi til ichki tuzilishining o'ziga xos xususiyatini, ichki tuzilish birliklarining oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, quyi bosqich birligi o'zidan yuqoriroq bosqich birligi tarkibida o'z funktsiyasini ko'rsatishini ilmiy asoslab berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shunday qilib, XX asrning 50-yillaridan boshlab til sathi (lingvistik sath) tushunchasi maydonga keldi. Bu tushunchaning shakllanishi va ilmiy asoslanishida L.Elmslev hamda bir qator Amerika deskriptiv tilshunoslari, xususan, Dj.Treyjer, K.Payk, Ch.Xokket, Z.Xarris singari olimlarning xizmati katta bo'ldi. Lingvistik sath tushunchasining paydo bo'lishiga tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligining e'tirof etilishi, shakliy va mazmuniy tomonlarning har biri o'ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi, ularning har qaysisi o'z ichki uzvlari munosabatidan tashkil topgan kichik sistema ekanligi, shunday qilib, tilning tuzilishi sistemalar tartibida bo'lishi, ular o'rtasidagi munosabat til mexanizmini harakatga keltirishi haqidagi qarashlarning maydonga kelishiga turtki bo'ldi. Ko'rinadiki, sath tushunchasi til ontologiyasiga hamda tilning sistemalashtirish va tavsiflash usuliga mansubdir. Sath tushunchasining ma'lum til birliklari yig'indisi tushunchasi bilan aloqasi borligi shubhasiz. Lekin sathni belgilashda qanday lingvistik belgilarga tayanish masalasini aniqlash katta ahamiyatga ega. V.M.Solntsev fikricha, tilda yasama so'zlar yig'indisi qo'shma so'zlar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisidan farq qiladigan birliklar yig'indisini hosil qiladi. Shuningdek, o'zak morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisi affiks morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklardan farq qiladi. Ana shu bir-biridan farq qiladigan birliklar yig'indisiga asoslanib, «yasama so'zlar sathi», «qo'shma so'zlar sathi», «o'zak morfemalar sathi», «affiks morfemalar sathi» va boshqa sathlarni ajratish sath tushunchasini chegarasiz bir tushunchaga aylantirib yuboradi. Tilda nechta til birliklari guruhlanishi mavjud bo'lsa, shuncha til sathini ajratishga olib keladi. Xususan, N.A. Slyusarevaning ham yordamchi so'zlar guruhini mustaqil so'zlar guruhidan ajratgan holda servologik sathni, shuningdek, E.Benvenistning fonemalarning farqlovchi belgilari uchun merizmatik sathni ajratganini eslash kifoya. Frazologik sath buyicha ham yosh olimlarimizning bir qator izlanishlar olib borganligini kuzatishimiz mumkin. Shular jumlasidan X.T.Nurullayevning o'zbek va nemis tillaridagi bir qator ishlarida frazeologik birliklar frazeologik sath doirasida salmoqli o'rganilganligini kurishimiz mumkin. Uning ta'kidlashicha ko'pgina frazeologik birliklarni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi. Turli manbalarda idiomalarni tarjima qilishda ko'plab qiyinchiliklar

mavjudligi yetarlicha tushuntirilgan. Umuman olganda, bu qarashlar to'g'ri. Frazologizmlarni tarjima qilish juda murakkab jarayon. Lekin bunga sabab frazeologik birliklar, qoida tariqasida, an'anaviy milliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini, betakror obrazlari yoki xalq hikmatlarini o'zida mujassam etganligida emas, balki ko'pgina idiomalarning o'ta murakkab tuzilmaga ega bo'lishi va natijada bunday frazeologik birliklarni tarjima qilishda ko'plab qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligini takidlaganlar.

MUHOKAMA

Tilning ichki tuzilishini sathlarga ajratishda ana shunday boshboshdoqlikni bartaraf qilish uchun til birliklarining doimiy, barqaror sathlarini ajratishga imkon beradigan belgilariga tayanish lozim. Ana shunday belgi til birliklarining pog'onaviylik belgisidir. Xuddi ana shu belgi deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan tilni sathlarga ajratishning asosiy belgisi sifatida e'tirof etilgan edi. Lingvistik birlikning ana shu pog'onaviylik belgisi lingvistik sathni belgilashning asosiy tamoyili sifatida e'tirof etilganda, til ichki tuzilishining pog'onaviylik tabiati to'g'ri ochilgan bo'ladi.

Bunga muvofiq, lingvistik sath tushunchasi ostida o'zaro pog'onaviy munosabatda bo'lmagan nisbiy bir xil birliklar munosabati anglashiladi. Bir sath birliklari boshqa sathga mansub (o'zidan katta yoki o'zidan kichik) bo'lgan birliklar bilan pog'onaviy munosabatda bo'ladi. Bunda quyi sath birligi yuqori sath birligidan tashkil topadi, quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibiga kirish xususiyati aks etadi. Turli sath va ustparadigma birliklari o'zaro paradigmatic munosabatga ham, sintagmatik munosabatga ham kirishmaydi, ya'ni fonema va morfemalardan yoki morfema va so'zlardan tashkil topgan sinflarning bo'lishi mumkin bo'lmaganidek, fonema bilan morfemaning, morfema bilan so'zning ketma-ket munosabatga kirishib, sintagmatik zanjirni hosil qilishi ham mumkin emas. Tilning ichki tuzilishiga bunday yondashuv kompozitsion kontseptsiya deb yuritiladi. Kompozitsion kontseptsiyaga muvofiq, tilning ichki tuzilishi bir xil yo'nalishdagi pog'onalanishdan (ierarxiyadan) iborat. Bu shundan iboratki, fonema, morfema va undan katta birliklar o'rtasida bir xil yo'nalishdagi pog'onali munosabat mavjud. Quyi sath birligi yuqori sath birligi

uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibida uning tarkibiy qismi (konstituenti) sifatida vazifa bajaradi.

Til va nutq hodisalari umumiylik-xususiylilik, mohiyat-hodisa, invariant variantlilik tushunchalari bilan uzviy bog'lanadi. Umumiylik va xususiylilik dialektikasi to'g'risida gapirganda, Gegelning bir iborasini eslash o'rinlidir. Biz gilos, olma, o'rikni yeymiz, hech qachon mevani yeya olmaymiz. Yoki V.M.Solntsev ta'kidlaganidek, yilqi ichidagi qaysi otni boshqa otga nisbatan invariant deb hisoblash mumkin. Tabiiyki, hech qaysisini, faqat ularning bittasini «namuna» deb e'tirof etish mumkin. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bir sinfga mansub bo'lgan moddiy birliklarning hech qaysi biri bilan shunday moddiy birlikka nisbatan invariant bo'la olmaydi. Har qaysi moddiy birlik bir sinf (paradigma) doirasida boshqa moddiy birlikka nisbatan variant sanaladi. Shu ma'noda invariant-variant gomogen bo'lmagan ob'ektdir. Konkret otlar uchun invariant qandaydir mavhum ot - umuman otdir. U moddiy birliklari qatorida turmaydi. Bunday ot aqliy predmetlardir. Uni boqish, minish mumkin emas. Lekin u har bir alohida otda umumiylik va xususiylilik dialektikasini namoyon etgan holda umumiylikning belgisi sifatida mavjud bo'ladi. Fonologik sathda umumiylik va xususiylilik dialektikasi fonema va uning variantlari (ottenkalari) orqali namoyon bo'ladi. Xususan S.I.Shaumyan tovushlar uchun invariant – bu eksploziv talaffuzga ega bo'lgan va shu belgisi bilan iploziv talaffuz qilinuvchi boshqa xuddi shunday tovushlardan farqlanib turuvchi moddiy substratdir. Chunki moddiy tomondan eksploziv talaffuz mustaqilroq pozitsiyaga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, qiyoslanayotgan ikki tovushdan mustaqil pozitsiyadagi tovush invariant, tobe pozitsiyadagi tovush esa invariant variant hisoblanadi. Shunday qilib, bir sinfga mansub real predmetlardan bittasi boshqalariga nisbatan namuna, etalon deb qaraladi va shuning uchun ham u invariant sanaladi. Lekin invariant va variantlar turli sathga mansub tushunchalar ekan, eksploziv talaffuz ham, «namuna» ham invariant bo'la olmaydi. Chunki ular ham muayyan umumiy birlikning bevosita kuzatishda berilgan turli moddiy ko'rinishlaridan bittasi sanaladi. Morfema – tilning eng kichik bo'laklarga bo'linmaydigan ma'noli qismidir. Morfema invariant sanalib, nutqda turli variantlar orqali moddiylashadi. Morfemani moddiylashtiruvchi

variantlar uchun morf, allomorf yoki morfema variantlari atamalaridan foydalaniladi. Leksik sathda invariant leksemdir. Har qanday leksema, bevosita kuzatishda leksik-semantik variantlar (LSV) holida namoyon bo'ladi. Har qaysi leksik-semantik variant leksemaning barcha shakl (moddiy ko'rinishi) va ma'nolarini (semalarini) emas, balki shakl va ma'nolaridan (semalaridan) bittasini gavdalandiradi. Fonologik sathdagi fonema variantlarining bunday tasnifi tilning boshqa sath birliklari uchun xosdir. Xususan, muayyan leksemaning hududiy farqlanishi fakultativ (pichan-bichan, o'xshamoq o'shxamoq), so'zlovchining individual varianti sanaladi. Majburiy variant, o'z navbatida, pozitsion, kombinator va uslubiy variantlarga bo'linadi. Lisoniy birliklarning pozitsion varianti uning qanday pozitsiyada (kuchli yo kuchsiz pozitsiyada) joylashishiga ko'ra vujudga keladi. Kombinator variantlar esa lisoniy birliklarning sintagmatik munosabatida namoyon bo'ladi. Uslubiy variantlar lisoniy birliklarning uslublararo farqlanishi asosida paydo bo'ladi. Shuningdek bizning boshqa bir izlanishimizda quyidagi fikr keltirilgan. Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o'rganishdir. Xar bir sathning o'z birliklari va tushunchalari bo'lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug'at sathidan, lug'at sathi grammatik sathdan farqlanadi. Ammo, ushbu sathlar o'zaro bog'liq ravishda butun til tizimini tashkil etadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar: 1. Fonetik-fonologik sath. 2. Lug'at sathi. 3. Grammatik sath. Fonetik-fonologik sath. Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o'rganadi. Fikr almashish uchun foydalaniladigan so'zlar va gaplar, albatta, tovushlar tizimida o'z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o'rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o'z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko'ra murakkab xodisadir.

NATIJA

Leksikologiya tilshunoslikning eng asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ham mazkur sohaga doir ma'lumotlarni o'rganish uchun quyidagi asosiy masalalarga alohida e'tibor qaratish o'rinli deb hisoblaymiz. Leksikologiyaning o'rganish sohasini aniq belgilab olish, uning bo'limlari va har bir bo'limning o'rganish ob'yektini aniq tasavvur etish, so'zning leksik-semantik xususiyatlarini

chuqur o'rganish lug'aviy va leksik ma'no, so'z, narsa va tushuncha orasidagi munosabatlar ana shular jumlasidandir.

Tilshunoslikning har bir bo'limi o'zining asosiy o'rganish birligiga ega. Masalan, fonetika va fonologiyada bunday birlik tovushlar, morfologiyada morfemalar bo'lsa, leksikologiyada asosiy tadqiq etilayotgan birlik so'z hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, so'z nafaqat leksikologiyaning, balki tilshunoslikning barcha bo'limlarida muhim o'rganish ob'yekti sanaladi. Leksikologiyani biz sinxronik va diaxronik leksikologiyaga bo'lib o'rganishimiz ham mumkin. Bu esa yuqoridagilardan farqli o'laroq, tilning hozirgi holati va bosib o'tgan tarixiy evolyutsion yo'li jihatidandir. Tilning leksik qatlamini tasnifiy va qiyosiy o'rganish mumkinligi haqida tilshunos olimlar turlicha fikrlar bildirganlar. Ularning fikrlarini to'g'ri yoki noto'g'ri deb ayta olmaymiz, chunki ular o'zlarining til qonuniyatlari doirasida fikr yuritgan bo'lishlari mumkin. Ammo shuni naloqida ta'kidlash joizki, tasnifiy leksikologiyada alohida olingan muayyan bir tilning lug'at boyligini har tomonlama o'rganish nazarda tutilsa, qiyosiy leksikologiya o'z oldiga ikki yoki undan ortiq til leksikasini qiyoslab o'rganishni maqsad qilib quyadi. Biz olib borgan oldingi izlanishlarimizda keltirib o'tganimizdek, tilning lug'at sathi tilda mavjud bo'lgan so'zlar yig'indisidan iborat. Lug'at sathi tilning fonetik, fonologik va grammatik sathlaridan farq qiladi, chunki u doimo o'zgaradi va rivojlanadi. Fan, texnika va madaniyatning rivojlanish jarayoni so'z sathining doimo o'zgarib turishini talab qiladi. Shunga ko'ra, tilning lug'at sathi paydo bo'lish va foydalanish doirasi jihatidan bir-biridan farq qiladigan bir necha qatlamlardan iborat bo'ladi. Lug'at darajasining asosiy birligi bo'lgan so'z yordamida kishilar predmet va hodisalarni ifodalaydi.; gapda esa so'zlar o'zaro birikib, fikr bildirish imkoniyatini hosil qiladi. Leksikologiya lug'at sathini o'rganadi. So'zning ta'rifi, so'z va predmet, so'z va tushuncha, lug'atning o'zgarishi, so'zlarning bir-biri bilan munosabati, lug'at qatlamlari kabi muammolar leksikologiya o'rganadigan asosiy masalalardir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, so'z tilshunoslikning hamma sohasida birdek o'rganilishi lozim bo'lgan birlik hisoblanishi yaxshi ma'lum. Biroq, so'zni

voqelikdagi narsa, belgi, voqea, hodisa, harakatning bevosita belgisi deb tushunish izohtalabdir. Zotan, soʻz voqelikdagi narsa, belgi, voqea, hodisa, harakat kabilar haqidagi tushunchani nomlaydi. Boshqacha aytganda, soʻzning fizik qiyofasi bilan u anglatayotgan narsaning fizik qiyofasi oʻrtasida hech qanday bogʻliqlik mavjud emas. Hozirgi kunda tilshunoslikda soʻzning maʼnosini “signifikat” termini bilan, u anglatayotgan predmet yoki hodisani “denotat” (Belgining denotati (lotincha denotatum — «belgilangan») u ishora qiladigan faktlar sinfi boʻlsa, belgi (lotincha significatum — «belgilangan») bu sinfning barcha faktlarining umumiy belgilaridir. Ularga soʻzning ichki shakli (ismning asosini tashkil etuvchi xususiyat) ham qoʻshiladi. Soʻzning leksik maʼnosining belgi tomoni uning oʻzagi hisoblanadi. Soʻz maʼnosining pragmatik tomoni ekspressiv-emotsional baho va turli xil konnotatsiyalarni oʻz ichiga oladi. Umuman olganda, soʻzning leksik maʼnosi koʻpincha "kontseptual asosiy va pragmatik konnotatsiyalar yigʻindisi" deb taʼriflanadi va "oʻzaro bogʻliq va bir-biriga bogʻliq boʻlgan tarkibiy qismlardan iborat va tarkibiy tashkilotga ega boʻlgan maʼlum bir semantik butunlikni" ifodalaydi.) termini bilan nomlaymiz.

References:

1. Solnsev V.M. О понятии уровня языковой системы //Вопросы языкознания. (On the notion of the level of linguistic system // Issues of linguistic). Moscow, 1972, № 3.
2. Benveniste E. Общее языкознание (General Linguistics). Moscow, 1974, X chapter.
3. Xayrullayev X.Z. “Til va nutq birliklarining ierarxik munosabatlari” dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2018 24-25 betlar
4. Xayrullayev X.Z <<Sath tushunchasi va uning lingvistik tabiati>> “ Til, taʼlim va tarjima” Toshkent 2021. 7-20 betlar
5. Begimova Gulshoda Jahon qizi. “TIL VA NUTQ TIZIMIDA SATH TUSHUNCHASI” TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 4 (12), 102-104 <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE>

6. G Begimova. Linguistic description of the lexical level and its learning status. *Til va adabiyot.uz* 12 (12), 152-154
7. Slyusareva N.A. Категориальная основа тема-рематической организации предложения // ВЯ. – М., 1986 – № 4.
8. Nurullayev Khasan Tukhtayevich. (2023). TRANSLATION OF SOMATIC PHRASEOLOGICAL UNITS IN GERMAN AND UZBEK . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 23(8), 141–143.
9. Nurullayev Khasan Tukhtayevich. (2023). STUDY OF SOMATIC PHRASEOLOGY WITHIN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(3), 66–70.
10. Nurullayev Khasan Tukhtayevich. (2023). ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS FORMED ON THE BASIS OF DAILY LIFE IN THE GERMAN LANGUAGE. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 3(06), 138–140.
<https://doi.org/10.55640/eijmrms-03-06-27>
11. Qarshiyeva Shoxista Xoliqul qizi. (2023). LINGUISTIC FEATURES OF THE ENGLISH DISCOURSE OF SOCIAL NETWORKS. (35)2023.
12. 3. Qarshiyeva , S. . (2024). INGLIZ TILIDA ERGATIV FE'LLARNING O'RGANISH MASALALARI. *Молодые ученые*, 2(5), 30–32.
<https://www.in-academy.uz/index.php/yo/article/view/27494>